XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 31 - yanvar VI-77-30-14-0-K/23 Toshkent shahar hokimligi

Yunusobod tumanidagi “Buyuk Turon” mahallasida joylashgan Amir Temur 1-tor ko‘chasini Usmon Nosir ko‘chasi deb qayta nomlash hamda ushbu ko‘chaga tutash bo‘lgan nomsiz ko‘chani Usmon Nosir 1-tor ko‘chasi deb nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-125-son, Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-son qarorlariga asosan hamda Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2022-yil 27-iyuldagi 11-sonli yig‘ilishi bayoni va Yunusobod tumani hokimligining 2022-yil 14-dekabrdagi 01-11/142-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi “Otashin shoir, tarjimon va dramaturg Usmon Nosir tavalludining 110 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-125-son qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Toshkent shahar komissiyasining 2022-yil 27-iyuldagi 11-sonli yig‘ilishi bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yunusobod tumanidagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari (D.Raximova), Yunusobod tumani hokimligi (A.Abduvaliyev):

nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlari (ko‘cha, tor ko‘cha) to‘g‘risida mahalliy aholi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari (D.Raximova), Toshkent shahar Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Toshkent shahar Davlat soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov), Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritilsin hamda bu borada zarur choralar ko‘rilsin.

6. Kadastr agentligining Toshkent shahar boshqarmasi (B.Tashxodjayev) ikki oy muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-dekabrdagi 1010-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrini shakllantirish va yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarida (ko‘cha, tor ko‘cha) joylashgan ko‘chmas mulk obyektlarining manzillarini belgilash, o‘zgartirish va me’yorlashtirish ishlarini amalga oshirsin;

manfaatdor shaxslarni manzilning o‘zgartirilganligi haqida o‘rnatilgan tartibda xabardor qilsin.

7. Toshkent shahar Obodonlashtirish boshqarmasi uch oy muddat ichida nomlanayotgan va qayta nomlanayotgan aholi punktlarining tarkibiy qismlarida (ko‘cha, tor ko‘cha) ko‘cha ko‘rsatkichlarini (peshlavhalarini) davlat tili talablariga mos ravishda belgilangan tartibda o‘rnatish va almashtirish ishlarini yakunlasin.

8. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmati (M.Azimova):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Sh.Sagdullayev va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari D.Raximova zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **T. Matibayev**

Xalq deputatlari Toshkent
shahar Kengashining
2023 yil 31 yanvardagi
VI-77-30-14-0-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Yunusobod tumanidagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflar ro‘yxati

Yunusobod tumani					
T/r	**Geografik obyektning turi**	**Geografik obyektning joylashgan o‘rni**	**Geografik obyektning amaldagi nomi**	**Geografik obyektning yangi nomi**	**Geografik obyektning shartli xaritada joylashuvi**
1.	ko‘cha	Buyuk Turon mahallasi	Amir Temur 1-tor ko‘chasi	Usmon Nosir ko‘chasi	Amir Temur shohko‘chasidan Oloy va Yahyo G‘ulomov ko‘chalari kesishuvigacha
2.	tor ko‘cha	Buyuk Turon mahallasi	nomsiz ko‘cha	Usmon Nosir 1-tor ko‘chasi	Amir Temur 1-tor ko‘chasidan Shahrisabz ko‘chasigacha